

**TA’LIMDA TARBIYAVIY, IJTIMOIIY ISH NAZARIYASI
AMALIYOT VA PSIXOLOGIK MASALALAR**

Nigora Alijonova

*Toshkent Gumanitar fanlar Universiteti, Filologiya tillarni o’qitish
arab tili fakulteti AF-02 guruh talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqola ta’lim va tarbiya jarayonining zamonaviy tendensiyalari, o’quvchilarda ijtimoiy ko’nikmalarni rivojlantirish usullari, pedagogik faoliyatda psixologik yondashuvning mohiyati kabi masalalarga bag’ishlangan. Maqolada yoshlarning ilmga rag’batlantirish, ta’lim sohasida axloqiy ko’nikmlarni shakllantirish, pedagogikaning ijtimoiy ish nazariyasi va psixologiyasiga oid tavsiyalar keltiriladi. Maqola soha vakillarining kasbiy kompetentligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so’zlar: tarbiya, ijtimoiy ish, psixologiya, ta’lim, pedagogika, ijtimoiy ko’nikmalar, shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy-psixologik muhit.

Ta’lim va tarbiya jamiyatimizning kelajagini belgilovchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Jamiyatimizda qancha ko’p ilg’or yoshlar bo’lsa, yurt ravnaqi uchun shuncha ko’p manfaat keltiradi. Bu esa, albatta, yoshlarning har taraflama ilm va salohiyatiga ega bo’lishlarining zaruratini keltirib chiqaradi.

Biz ta’lim haqida gapirganimizda beixtiyor tarbiya so’zini juftlab ketishimizdagi mohiyat nima deb o’ylaysiz? Sizningcha, bular bir-biriga shunchalar bog’liq masalami? Ha, bu ikkisi bir-biriga chambarchas bog’liq. Bir o’simlikka suv, quyosh nuri va o’g’itlar qanchalik muhim bo’lsa, uni zararkunanda hasharotlardan himoya qilish, begona o’t o’lanlardan tozalash-undan muhim. Zero, tarbiya ta’limdan oldin ko’rilishi kerak bo’lgan masaladir. Buyuk mutafakkir va ulamolar “xulq nafsga joylangan”, deya qayd etishgan. Bundan ko’rinib turibdiki, avvalo, biz nafsimizni tarbiyalashimiz, irodamizni mahkam ushlashimiz natijasida go’zal xulq sohiblari bo’lishimiz mumkin. Ta’lim olishda esa o’quvchi qaratadigan eng muhim ikki omil: xulqlanish va oliy himmat. Modomiki, inson ilm talabida ustozga hurmat qilmas ekan, niyatini to’g’irlab olmas ekan, bu yo’ldagi mashaqqatlarga yengilib qolar ekan, u hech qachon ustozlarining fazilatiga erisha olmaydi. Shu o’rinda ta’lim va tarbiyaga oid professor, mutaxassislar aytgan tavsiyani keltiraman:

1. Ustozni hurmat qilish;

Ustozni ilmi sizga yuqishi uchun, albatta, uni aytganlariga so‘zsiz bo‘ysunish, uni xizmatini beminnat qilish, u buyurgan ishlarda, vazifalarda doim faol bo‘lishi kerak.

2. Uyatchanlik va kibrdan yiroq bo‘lish;

Talabaning eng salbiy tarafi, tushunarsiz bo‘lgan darslarni qayta so‘rashdan uyalish va bir mavzu yuzasidan ozgina bilimga ega bo‘lib, kibrga berilish. Shuning uchun bu ikki sifatdan uzoqlashish kerak.

3. Vaqtni behudaga sarflamaslik;

Har qanday sohada eng yaxshi mutaxassis bo‘lish uchun, vaqtni qadrini bilish kerak. Chunki o‘rganilish kerak bo‘lgan bilimni cheki yo‘q, lekin vaqt oz va u imkoniyat qayta berilmaydi.

4. Darslarni takrorlash;

Xotiraning ikki turi bor: Qisqa muddatli xotira va uzoq muddatli xotira. Darsda o‘tilgan mavzular qisqa muddatli xotiraga joylanib qolmasligi uchun uni takrorlab turish kerak.

5. Qat’iyatli bo‘lish.

Hech bir ishga yengil qarab, muvaffaqiyatga erishgan insonni hech eshitganmisiz? Yo‘q! Har qanday sohada qat’iyatli bo‘lish orqali, darslarda bardavom harakat qilish orqali natijaga erishish mumkin.

Insonning ta’lim va tarbiya komillik darajasiga yetaklaydi. Ikkisida ham peshqadamlardan bo‘lingki, shoyad ustozlaringiz fazilatiga erishsangiz!

O‘quvchilarning jamiyatda o‘z o‘rnini topib, ta’lim va tarbiya jihatidan yetuk shaxs bo‘lib ulg‘ayishida pedagogika soha vakillarining xizmatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu masala bir vaqtning o‘zida pedagoglar psixologik tamoyillarga tayangan holda ish ko‘rishlari kerakligini anglatadi.

Shu o‘rinda ingliz siyosiy arbobi-Jon Miltonning quyidagi so‘zlariga izoh berib o‘taman: “Umumiy va shaxsiy barcha vazifalarni odillik, mahorat va yuksak axloq bilan amalga oshirish kuchini bera oladigan ta’limga mukammal va haqiqiy ta’lim deya olaman” [1]. Demak, haqiqiy ta’lim shunday kuchga ega ekanki, o‘quvchi ta’lim olish jarayonida, nafaqat aqliy, balki, ijtimoiy, jismoniy nazariyaga ham ega bo‘lishi kerak. Bu sistema pedagoglarning psixologik jihatidan to‘g‘ri yondashganlaridagina yaxshi natija ko‘rsatadi.

Bundan bizga ma’lum bo‘lgan jarayon o‘qituvchining o‘quvchiga munosabatlari, pedagogik faoliyati bilan bir qatorda uni psixologik terapiyasini ham e’tibordan chetda qoldirmagan holda, chuqurroq yondashishi kerak.

Shifokor bemorni davolash uchun avval, unga tashxis qo’yish, eng zarur dori-darmonlarni berishi muhim bo’lgani kabi o’qituvchi ham o’quvchini qiziqishlari, iqtidori, ijtimoiy terapiyasini bilishi va shundan xulosa qilib, uni bir tarmoqqa yo’naltirishi zarur. Demak, o’qituvchidan fidoyilik, o’quvchidan ishtiyoq orqali samarali hamkorlik qila olish mumkin

Ijtimoiy ish – butun dunyoda qabul qilingan ma’nosiga ko’ra, shaxsga munosabatni namoyon qilishni anglatadi. U qadimgi vaqtlarda saxovat, insonning diniy burchi, insonga zarur bo’lgan gumanitar xizmatlar tizimi sifatida paydo bo’lgan. Ammo faqatgina o’rta asrga kelib, ijtimoiy ish maxsus tayyorgarlikni talab qiluvchi mustaqil faoliyat sifatida tan olindi [2].

Insonga berilgan eng yaxshi ehson unga berilgan bilimdir. Insonga mehr-muruvvat ko’rsatish, xayriya qilish, turli sovg’alar bilan ko’nglini olishning quvonchi ma’lum vaqtdan keyin unutiladi, lekin unga berilgan bilimning foydalari va quvonchi bir umr egasiga yaxshilikka xizmat qiladi. Bu samarani inson o’zi xohlagan vaqtda foydalanish imkoniyatiga ega bo’ladi.

Inson ulg’aygani sari unga kerak bo’ladigan eng zarur narsa bu ilm ekanini anglaydi. Har qancha boylikka ega bo’lmasin, u boylikni to’g’ri sarflashni bilish uchun bilim, ko’nikma, aql bo’lmasligi insonni ma’nan, hatto, moddiy qashshoqdek his qilishga sabab bo’ladi. Jamiyat bilan muomala qilish uchun xushmuomala, halollik, ishonch, ochiq ko’ngil, hurmat kabi sifatarga ega bo’lish ham insondan ma’nan yetuklik talab qiladi. “Ikki kishi o’rtasidagi eng uzoq masofa bu tushunmovchilik” [3].

Qaysi turdagi bilim va ko’nikmaga ega bo’lmang, u faqat sizning manfaatingizni ta’minlaydi. Zero, ilm insonni nurga eltadi, hayotini mazmunli qiladi.

Ta’lim va tarbiya – inson kamolotining ikki asosiy tayanchi bo’lib, ular bir-birini to’ldirib, yurt ravnaqi va jamiyat taraqqiyotida muhim rol o’ynaydi. Ilm olish jarayonida faqat bilim emas, balki go’zal xulq, iroda, hurmat, va qat’iyat ham insonni yetuk shaxs sifatida shakllantiradi. Ustozga hurmat, samimiyat, fidoyilik, vaqtga nisbatan e’tibor, va bilimni chuqurlashtirishga bo’lgan intilish – bularning barchasi muvaffaqiyat sari yo’l ochadi. Shu bois, yoshlar har tomonlama barkamol bo’lishga intilib, ta’lim bilan bir qatorda tarbiyani ham o’z hayotlarining ajralmas qismi sifatida qabul qilishlari zarur. Zero, komil jamiyat – komil insonlardan boshlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adham Bakar. Iroda tarbiyasi. – Toshkent. Yangi asr avlodi, 2014.
2. Ganieva M.X., Latipov N.M., Alikarieva A.N., Kalanova S.M. Ijtimoiy ish nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent. 2018.
3. Abdulla Qahhor. Sarob romani. Sharq, 1995.